

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE SCOPE OF LIABILITY RELATED TO THE PERFORMANCE OF CORPORATE DIRECTORS' FUNCTIONAL DUTIES

Umarova Kholiskhon Nomoz qizi

Lecturer, Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the boundaries of legal liability arising from the performance of corporate directors' functional duties on the basis of a systematic and comparative legal analysis. The study substantiates that the clear legal determination of directors' duties and functions is a decisive factor in defining the scope and limits of their liability.

Keywords: corporate governance, directors' liability, functional duties, fiduciary obligations, duty of care and loyalty, internal and external liability, comparative legal analysis, corporate legislation, legal status of directors.

KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI

Umarova Xolisxon Nomoz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

E-mail: xolisxonumarova2310@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korporatsiya direktorlarining funksional vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy javobgarligi chegaralari tizimli va qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda direktorlarning vazifa va funksiyalarini aniq belgilash ularning javobgarligi doirasini aniqlashda hal qiluvchi omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, direktorlarning javobgarligi, funksional vazifalar, ishonchli majburiyatlar, g'amxo'rlik va sodiqlik tamoyillari, ichki va tashqi javobgarlik, qiyosiy-huquqiy tahlil, korporativ qonunchilik, direktorlarning huquqiy maqomi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N40>

Kirish. Zamonaviy korporativ huquqda direktorlik instituti yuridik shaxs faoliyatining samaradorligi, barqarorligi va bozor ishtirokchilarining manfaatlarini muvozanatlashda muhim o'rin egallaydi. Korporatsiya direktorlarining qarorlari nafaqat kompaniya ichki boshqaruviga, balki aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois direktorlarning funksional vazifalari va ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy javobgarlik chegaralarini aniqlash masalasi korporativ boshqaruv tizimining asosiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xorijiy huquqiy tajriba shuni ko'rsatadiki, direktorlar javobgarligi masalasida mutlaq va cheklanmagan yondashuvdan voz kechilib, uni aniq funksional vazifalar, aybli xatti-harakat, yetkazilgan zarar va sababiy bog'lanish mezonlari asosida belgilash tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Anglo-sakson va romano-german huquq tizimlarida shakllangan biznes qarori qoidasi, vijdonan va oqilona harakat qilish prinsipi hamda ishonchli majburiyatlar instituti

direktorlarni asossiz huquqiy da'volardan himoya qilishga qaratilgan muhim mexanizmlar sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi korporativ qonunchiligida direktorlarning javobgarligi umumiy tarzda nazarda tutilgan bo'lsa-da, ularning aniq vazifa va funksiyalari qonun darajasida tizimli va batafsil belgilab berilmagan. Natijada huquqni qo'llash amaliyotida direktorlarning qaysi holatlarda shaxsiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi masalasi ochiq qolmoqda.

Muhokama va natijalar. Direktorlarning funksional vakolatlari va majburiyatlarini huquqiy jihatdan aniq belgilash korporativ boshqaruv tizimining barqaror ishlashi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan ushbu vakolatlar doirasida direktorlarning huquqiy javobgarligi shakllanadi va chegaralanadi. Funksiya hamda vazifalar normativ jihatdan noaniq belgilangan hollarda direktorlik instituti ortiqcha huquqiy xavf manbaiga aylanishi mumkin bo'lib, bu professional menejerlarni boshqaruv lavozimlaridan tiyilishiga olib keladi. Shu sababli huquqiy adabiyotlarda direktorlik lavozimi bir kun kelib "hech kim bo'lishni istamaydigan lavozim"ga aylanib qolishi mumkinligi ta'kidlanadi [1].

Direktorlarning funksiyalari, ularga yuklatilgan vazifalar hamda ushbu majburiyatlarni buzish bilan bog'liq javobgarlik masalalari qonun hujjatlarida aniq va tizimli tarzda mustahkamlanishi zarur. Albatta, bunday yondashuv korporativ huquqning shakllanishining dastlabki bosqichlarida AQSh huquqiy doktrinasida ustuvor bo'lgan qarashlarga ma'lum darajada zid ko'rinishi mumkin [2]. Chunki o'sha davrda yuridik shaxs ta'sischi va boshqaruv organlari o'rtasidagi shartnomaviy kelishuv natijasi sifatida baholanib, davlatning, ayniqsa, ichki boshqaruv jarayonlariga aralashuvi nomaqbul deb hisoblangan. Biroq 1980-yillarda AQShda yuzaga kelgan keng ko'lamli korporativ suiiste'molliklar hamda kompaniyalarni agressiv egallab olishlar amaliyoti korporativ munosabatlarda davlatning tartibga soluvchi rolini kuchaytirish zaruratini yuzaga chiqardi. Mazkur jarayon, avvalo, direktorlar kengashlarida mustaqil direktorlarning majburiy ishtirokini joriy etish hamda ularning boshqaruvdagi vakolatlarini aniq chegaralash orqali namoyon bo'ldi. Natijada direktorlarning funksional roli bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqilib, Germaniya huquq tizimiga xos bo'lgan kuzatuv kengashi modeliga yaqinlashuvchi institutlarning shakllanishiga zamin yaratildi [3].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida korporatsiya direktorlarining javobgarligi umumiy tarzda belgilangan. Xususan, "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasiga muvofiq, jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organ hamda kollegial ijro etuvchi organ a'zolari, agar qonun hujjatlarida boshqa asoslar va javobgarlik miqdorlari nazarda tutilmagan bo'lsa, o'zlarining aybli harakatlari yoki harakatsizligi natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar hisoblanadi. [4] Xuddi shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 81-moddasida ham jamiyat kuzatuv kengashi, direktori, boshqaruv a'zolari hamda ishonchli boshqaruvchisining javobgarligi mustahkamlangan bo'lib, ushbu javobgarlik, eng avvalo, ularning jamiyat oldidagi majburiyatlari doirasida talqin etiladi. [5].

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda javobgarlikning aynan qaysi xatti-harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga kelishi, shuningdek, direktorlarning aybli xulq-atvori ularning funksional vazifalaridan kelib chiqadimi yoki yo'qmi, degan masalalar aniq huquqiy ta'rif bilan mustahkamlanmagan. Chunki "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli

jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 8–9-moddalarida jamiyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasida esa aksiyadorlarning huquqlari belgilangan bo'lsa-da, direktorlarning vazifa va funksiyalari qonun darajasida alohida va tizimli ravishda bayon etilmagan. Aksincha, ijro etuvchi organ vakolatlarini belgilash masalasi asosan jamiyat ustavlariga havola etilgan bo'lib, bu holat direktorlar javobgarligi chegaralarini aniqlashda muayyan huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Romano-german huquq tizimida mavjud Rossiya Federatsiyasida ham sudlar javobgarlikni belgilash uchun huquqbuzarlikning quyidagi 3 ta element mavjud ekanligini aniqlashni taqozo etadi:

Birinchidan, direktor o'ziga berilgan muayyan majburiyatni amalda buzganmi va bu aniq bir shaklda ko'rinadimi?

Ikkinchidan, direktor bu harakati orqali korporatsiyaga qancha zarar keltirdi?

Uchinchidan, sodir etilgan huquqbuzarlik va korporatsiyaga yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudmi?

Mazkur qoida shunisi bilan ham ahamiyatliki, agar ushbu uchta elementlarning hattoki bittasi mavjud bo'lmagan taqdirda ham direktorni javobgarlikka tortish uchun da'vo qanoatlantirilishi rad etilishi mumkin [6].

Javobgarlikni direktorlarning aniq vazifa va funksiyalari bilan uzviy bog'lash ularning uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi doirasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim davlatlar qonunchiligida direktorlarning uchinchi shaxslar oldida mustaqil tarzda javobgar bo'lishi mumkinligini nazarda tutuvchi normalar mavjud. Xususan, Hindistonning 2013-yildagi yangi tahrirda qabul qilingan "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonuni (1956) da belgilangan qoidalarga ko'ra, agar direktorlar tadbirkorlik faoliyati jarayonida soxta savdo amalga oshirishda aybdor deb topilsa, sud qaroriga asosan ular kompaniyaning qarzlari yoki majburiyatlari bo'yicha shaxsan javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuningdek, direktorlar kompaniya tashkil etilgan, biroq hali davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan davrda uning nomidan uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzgan taqdirda ham shaxsiy javobgarlikni zimmasiga oladi. Bu holat sud amaliyotida ham tasdiqlangan bo'lib, xususan, Kelner va Baxter ishi doirasida umumiy yurisdiksiya sudi direktor vakolatsiz holda shartnoma imzolagan bo'lsa, ushbu harakati uchun o'zi shaxsan javobgar bo'lishi lozimligini qayd etgan. [7]

Aynan shunday vaziyatlarda direktorlarning vazifa va funksiyalarini aniq va ravshan belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Amerika sud amaliyotida keng tanilgan "*Fisher v. Carrousel Motor Hotel*" ishi e'tiborga loyiq misol sifatida ko'rsatib o'tiladi. Mazkur ishda Texas shtati qonunchiligi asosida agent (xodim) tomonidan uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan hollarda prinsipial yoki ish beruvchining javobgarligi qaysi shartlar mavjud bo'lganda yuzaga kelishi aniqlashtirilgan. Xususan, sud amaliyotiga ko'ra:

Birinchidan, agar prinsipial zarar yetkazuvchi xatti-harakatni sodir etish bo'yicha bevosita ko'rsatma bergan bo'lsa;

Ikkinchidan, agent mazkur vazifani bajarishga noloyiq bo'la turib, prinsipial bu holatdan xabardor holda uni shu ishga mas'ul etib tayinlagan bo'lsa;

Uchinchidan, agent o'ziga yuklatilgan xizmat vazifalari yoki vakolat doirasida harakat qilgan bo'lsa;

To'rtinchidan, keyinchalik ish beruvchi yoki menejer ushbu xatti-harakatni ma'qullagan bo'lsa, bunday holatlarda agentning zarar yetkazuvchi xulq-atvori uchun prinsipial yoki uning rahbari javobgar hisoblanadi. [8]

Mazkur sud ishining tahlili asosida bir qator muhim xulosalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, agar direktor ijro etuvchi organga yuklatilgan va normativ yoki ustaviy jihatdan belgilangan vazifalar doirasida harakat qilgan bo'lsa, hatto ushbu harakatlarning oqibati uchinchi shaxslarga ma'lum zarar yetkazgan taqdirda ham, bunday holat direktorning shaxsiy javobgarligini keltirib chiqarmasligi lozim.

Ikkinchidan, direktor lavozimiga tayinlanish jarayonida unga tegishli vazifa va funksiyalar oldindan aniq belgilab berilmagan bo'lsa va shu sababli uning mazkur lavozimga munosibligi yoki nomunosibligini baholash imkoniyati mavjud bo'lmagan holda tayinlov amalga oshirilgan bo'lsa, bunday tayinlov oqibatida yuzaga kelgan zarar uchun direktorning shaxsan javobgar etilishi maqsadga muvofiq emas.

Uchinchidan, direktor o'z vakolatlari doirasida, vijdonan va oqilona tarzda harakat qilgan bo'lsa, mazkur xatti-harakatlar natijasida zarar kelib chiqqan taqdirda ham, ushbu zarar direktorning shaxsiy javobgarligini avtomatik tarzda yuzaga keltirmasligi kerak.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan hisobotlarda bayon etilgan "Korporativ boshqaruv prinsiplari"da ham ushbu yondashuv qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, agar direktorlar kengashi qaror qabul qilish jarayonida barcha oqilona va zarur choralarni ko'rgan bo'lsa, biroq kutilgan natijaga erishilmagan bo'lsa, bunday holatda direktorlar kengashini ushbu qaror bilan bog'liq da'volardan huquqiy jihatdan himoyalash lozimligi ta'kidlanadi.[9].

Darhaqiqat, ingliz huquq tizimi yoki romano-german huquq tizimi doirasida bo'lishidan qat'i nazar, yuridik shaxs instituti, avvalo, javobgarlikni individuallardan ajratish va uni muayyan chegaralarda konsentratsiyalash maqsadida shakllangan. Yuridik shaxs mustaqil subyekt sifatida uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarga kirishganligi sababli, huquqlar ham, majburiyatlar ham, ulardan kelib chiqadigan javobgarlik ham, qoida tariqasida, uning zimmasiga yuklanadi. Shu bilan birga, regress majburiyatining mavjudligi oxir-oqibat yetkazilgan zarar uchun mas'uliyat bevosita aybli shaxs zimmasida qolishini nazarda tutadi. Aynan shu yondashuv O'zbekiston qonunchiligida ham o'z aksini topgan bo'lib, ijro etuvchi organ vakillarining javobgarligi, avvalo, jamiyat oldida ekanligi belgilangan. Biroq mazkur javobgarlikning yuzaga kelish asoslari va mezonlari aniq va batafsil tartibga solinmaganligi, amaliy jihatdan, direktorlarning o'zlari uchun ham ortiqcha huquqiy noaniqlik va xavf omilini vujudga keltirishi mumkin. Shu bois direktorlarning javobgarligini belgilash masalasini ularning aniq vazifa va funksiyalari bilan uzviy bog'lagan holda huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur.

Buyuk Britaniyada 2006-yilda qabul qilingan "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunda direktorlarning kompaniya oldidagi asosiy majburiyatlari aniq va tizimli tarzda belgilab qo'yilgan.[10] Ushbu majburiyatlar buzilgan taqdirda, aksiyadorlar direktorlarning xatti-harakatlariga nisbatan sudga da'vo kiritish huquqiga ega. Jumladan, direktorlar kompaniya manfaatlarini ustuvor qo'ygan holda harakat qilishi hamda uning barqaror rivojlanishi va muvaffaqiyatiga xizmat qiluvchi qarorlar qabul qilishi shart. Direktorlik majburiyatlarining buzilishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik bilan bir qatorda ayrim hollarda jinoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli direktorlar nafaqat mazkur qonunda belgilangan

majburiyatlarni, balki jamiyat ustavida mustahkamlangan vakolatlar va mas'uliyat doirasini ham to'liq va aniq anglab yetishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, korporativ direktorlarning javobgarligi doirasi, odatda, amaldagi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy normalar, shuningdek korporatsiya ustavi hamda direktorlar bilan tuzilgan shartnomalar orqali belgilanadi. Aksariyat yurisdiksiyalarda direktorlar korporatsiya va uning aksiyadorlari oldida ishonchli majburiyatlarni zimmasiga oladi, jumladan, g'amxo'rlik, sodiqlik hamda vakolatlar doirasida harakat qilish majburiyatlari shular jumlasidandir.

Direktorlar o'z vazifalarini ehtiyotkorlik, mas'uliyat va zarur darajadagi tirishqoqlik bilan bajarishi kutilsa-da, ularning javobgarligi mutlaq xarakterga ega emas va muayyan cheklovlarga ega. Xususan, korporativ qonunchilik vijdonan va oqilona harakat qilgan direktorlar uchun zararlarni qoplash, shuningdek sug'urta mexanizmlari orqali huquqiy himoya choralari nazarida tutishi mumkin. Bundan tashqari, biznes qarori qoidasi ko'plab huquqiy tizimlarda direktorlarni korporatsiya manfaatlarini ko'zlab qabul qilingan qarorlar natijasida kutilmagan yoki salbiy oqibatlar yuzaga kelgan taqdirda ham, ularni shaxsiy javobgarlikdan ozod etuvchi muhim kafolat sifatida xizmat qiladi.

Direktorlarning funktsiya va vazifalari bilan bog'liq javobgarlik doirasini qayta ko'rib chiqish va belgilash jarayoni yuridik majburiyatlar mazmunini, korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillarini hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini kompleks tarzda anglashni taqozo etadi. Direktorlar o'zlariga yuklatilgan ishonchli majburiyatlarni vijdonan bajarib, qaror qabul qilishda oqilona va ehtiyotkor yondashuvni namoyon etish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy majburiyatlarni sezilarli darajada kamaytirishi, shu bilan birga manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlagan holda korporatsiyaning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi mumkin.

Hindiston huquq tizimida korporativ jinoiy javobgarlik masalasi nisbatan aniq mexanizmlar orqali tartibga solinadi va unda javobgarlikni belgilashning bir nechta yondashuvlari mavjud. Xususan, ushbu tizim doirasida uchta asosiy usulni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, bahsli bo'lgan noqonuniy xatti-harakat uchun avvalo korporatsiya oldida javobgar bo'lgan aniq shaxs aniqlanadi; agar ushbu shaxs mazkur harakat uning xabarisiz yoki irodasiga zid ravishda sodir etilganligini asosli tarzda isbotlay olsa, u jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan huquqbuzarlik kompaniya direktori, menejeri, kotibi yoki boshqa mansabdor shaxslarning roziligi yoki bevosita ishtiroki bilan sodir etilganligi aniqlansa, aynan ushbu mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Uchinchidan esa, ayrim hollarda jinoiy javobgarlik bevosita kompaniyaning o'ziga yuklatilishi mumkin bo'lib, bu holatda korporatsiya muayyan mansabdor shaxsning javobgarligi o'rniga javobgar subyekt sifatida e'tirof etiladi.[11]

Direktorlarning vazifalari va ularning buzilishi oqibatlarini izohlashda shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur majburiyatlar, avvalo, kompaniyaga nisbatan vujudga keladi va shu sababli ularni bajarish ham kompaniya doirasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, aksiyadorlar yoki boshqa direktorlar kompaniya nomidan direktorlarning xatti-harakatlariga nisbatan sudga da'vo kiritish huquqiga ega. Bundan tashqari, agar kompaniya to'lovga layoqatsizlik holatiga tushib qolsa, kreditorlar ham direktorlarning xulq-atvorini sud tartibida bahslashishi mumkin. Xususan, direktor o'z faoliyatida kreditorlar manfaatlarini inobatga olmay, aksiyadorlarning manfaatlarini ilgari surishda davom etgan, degan asosli taxmin mavjud

bo'lgan taqdirda, kreditorlar da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladi. Amaliy misol sifatida, "Fairford Water Ski Club v Cohoon (2021 EWCA Civ 143)" ishida kompaniya direktori direktorlar yig'ilishida ko'l hududida faoliyat yurituvchi suv chang'isi maktabiga nisbatan shaxsiy manfaatdorligini oshkor etmagani sababli 350 ming funt sterling miqdorida tovon to'lashga majbur etilgan. [12]

Buyuk Britaniyada direktorlarning vazifalari va ular bilan bog'liq majburiyatlarni buzish masalalariga doir fuqarolik sud ishlari huquqning eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi hamda, qoida tariqasida, yuqori malakali mutaxassis advokatlar ishtirokini talab etadi. Bunday nizolar ko'pincha nafaqat direktorlarning asosiy majburiyatlari, balki manfaatlar to'qnashuvi, transchegaraviy faoliyat yoki qo'shma korxonalar bilan bog'liq huquqiy elementlarni ham qamrab oladi. Mazkur omillar birgalikda ishning huquqiy va faktik murakkabligini yanada kuchaytirib, direktorlarning javobgarligini baholashda kompleks va chuqur tahlilni talab etadi [13]

Beparvolik, majburiyatni bajarmaslik yoki ishonchni suiiste'mol qilish bilan bog'liq holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ham, sud muayyan shartlar asosida direktorlarni javobgarlikdan to'liq yoki qisman ozod etishi mumkin. Xususan, agar direktorlar o'z xatti-harakatlarini halol va oqilona tarzda amalga oshirganligi aniqlansa hamda ishning barcha holatlari har tomonlama baholanib, sud tomonidan direktorlarni oqlash adolatli va asosli deb topilsa, ularning javobgarligi cheklanishi yoki bekor qilinishi ehtimoldan xoli emas.

Direktorlar kompaniyaning bevosita egasi bo'lmaganligi sababli, ularning har doim ham kompaniya manfaatlarini yo'lida harakat qilishi va moliyaviy resurslardan doimo oqilona foydalanishini mutlaq tarzda taxmin qilish mushkul, degan qarashlar ham mavjud. Ushbu yondashuv agentlik nazariyasi doirasida keng asoslanadi. Xususan, 1932-yilda Berle va Means tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda direktorlar kompaniya egalari emas, balki ularning nomidan faoliyat yurituvchi agentlar ekanligi, menejmentni o'z qo'llarida jamlash orqali asosan o'z manfaatlarini himoya qilishga intilishi mumkinligi ta'kidlangan. [14]. Mulkdorlik va boshqaruv vakolatlarining bunday ajralishi korporativ boshqaruv jarayonida manfaatlar nomuvofiqligi va boshqaruv muammolarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [15]

Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, direktorlarning huquqiy javobgarligi mazmunan ikki asosiy yo'nalishga ajratilishi mumkin:

Birinchidan, ichki javobgarlik bo'lib, u direktorning kompaniya va uning ishtirokchilari (aksiyadorlari) oldidagi majburiyatlari doirasida yuzaga keladi

Ikkinchidan, tashqi javobgarlik bo'lib, direktorning uchinchi shaxslar, jumladan kontragentlar yoki kreditorlar oldidagi javobgarligini qamrab oladi.

Direktorlar javobgarligining vujudga kelish manbalari ham asosan ikki guruhga bo'linadi. Bir tomondan, javobgarlik direktor bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lib, bunday holatlarda shartnomaning turi, mazmuni va unda belgilangan majburiyatlarning hajmi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan esa, direktorlarning javobgarligi bevosita qonun hujjatlaridan, xususan, korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi normativ aktlar hamda bankrotlik to'g'risidagi qonunlar qoidalaridan kelib chiqadi.

Direktorlarning funksiyalari va vazifalari aniq yoki hech bo'lmaganda qisman belgilab qo'yilgan qonun hujjatlari ularning huquqiy javobgarligini aniqlashda eng muhim manba hisoblanadi. Aynan ushbu normalar orqali direktorlarning qaysi xatti-harakatlari javobgarlikni keltirib chiqarishi va qaysi holatlarda bunday javobgarlik yuzaga kelmasligi belgilanadi.

Mazkur yondashuvning tarixiy ildizlari qadimgi Rim huquqiga borib taqaladi. O'sha davrdan boshlab bironing nomidan ish yuritishda "bonus pater familia", ya'ni "oilaning yaxshi otasi" tamoyiliga rioya etilishi talab qilingan. Ushbu prinsipga ko'ra, boshqaruv vakolatiga ega bo'lgan shaxs o'ziga ishonib topshirilgan mulk va manfaatlarga oilaning otasi o'z yaqinlariga qanday g'amxo'rlik qilsa, xuddi shunday ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi lozim. [16] Mazkur g'amxo'rlik majburiyatining buzilishi esa huquqiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi asoslardan biri sifatida qoraladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar korporativ direktorlarning huquqiy javobgarligi ularning funksiyalari va vazifalari bilan uzviy bog'liq ekanligini hamda mazkur bog'liqlik aniq normativ asoslarda mustahkamlanmagan taqdirda korporativ boshqaruv tizimida huquqiy noaniqlik va ortiqcha risklar yuzaga kelishini ko'rsatadi. Xorijiy huquqiy tajriba, xususan anglo-sakson va romano-german huquq tizimlari, direktorlar javobgarligini mutlaq emas, balki majburiyat buzilishi, zarar mavjudligi va sababiy bog'lanish kabi aniq mezonlar asosida belgilash zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, biznes qarori qoidasi va vijdonan harakat qilish tamoyillari direktorlarni asossiz da'volardan himoya qiluvchi muhim institutlar sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston qonunchiligida direktorlarning javobgarligi jamiyat oldidagi majburiyatlar doirasida umumiy tarzda nazarda tutilgan bo'lsa-da, ularning vazifa va funksiyalarining qonun darajasida yetarlicha aniqlashtirilmaganligi huquqni qo'llash amaliyotida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur holatdan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

Birinchidan, mas'uliyati cheklangan hamda aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunlarga direktorlarning asosiy vazifa va funksiyalarini belgilovchi alohida normalarni kiritish, ushbu vazifalarni g'amxo'rlik, sodiqlik va vakolat doirasida harakat qilish tamoyillari bilan uzviy bog'lash zarur.

Ikkinchidan, direktorlarning javobgarligini belgilashda huquqbuzarlik tarkibining majburiy elementlari hisoblangan majburiyat buzilishi, zarar va sababiy bog'lanishni qonun darajasida mustahkamlash, bu orqali javobgarlikning asossiz qo'llanilishini cheklash lozim.

Uchinchidan, O'zbekiston korporativ qonunchiligiga biznes qarori qoidasi elementlarini joriy etish orqali vijdonan va oqilona harakat qilgan direktorlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, direktorlarning uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi faqat vakolat doirasidan chiqib ketilgan yoki qasddan sodir etilgan xatti-harakatlar bilan bog'liq hollarda yuzaga kelishini aniq belgilash orqali javobgarlik chegaralarini normativ jihatdan aniqlashtirish zarur. Beshinchidan, jamiyat ustavlari va direktorlar bilan tuziladigan shartnomalarda vazifa va vakolatlarning batafsil bayon etilishini majburiy talab sifatida mustahkamlash, bu hujjatlarning huquqiy ahamiyatini kuchaytirish lozim.

Direktorlarning funksiyalari va javobgarligi o'rtasidagi aniq huquqiy bog'liqlikni ta'minlash, bir tomondan, korporatsiyalar faoliyatida mas'uliyat va intizomni kuchaytirsam, ikkinchi tomondan esa professional boshqaruvni rag'batlantiruvchi barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Business Week, Sept. 8, 1986, at p. 50 ff.
<https://www.nytimes.com/1986/09/08/business/busiess-digest-monday-september-8-1986.html>
2. Merkt H., Göthel S.R. US-amerikanisches Gesellschaftsrecht. S. 98. Fn. 74.
3. E.A.Суханов “Сравнительное корпоративное право” М.: Статут, 2014. стр.11
4. “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g’risida”gi Qonun.06.12.2001, O’RQ-310-II.
<https://lex.uz/docs/-22525>
5. O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni. 06.05.2014, O’RQ-370 <https://lex.uz/docs/-2382409>
6. Корчагин Матвей Андреевич (2020). Ответственность директора перед корпорацией за причиненные ей убытки. Вопросы российской юстиции, (7), 182-202.
7. Surabhi Bairathi.Directors & Their Liabilities.
<https://www.legalservicesindia.com/article/577/Directors-&Their-Liabilities.html>
8. Emmitt E.Fisher, Petitioner, v Carrousel nMotor Hotel, Inc, et al., Respondents. № B-342. Supreme Court of Texas. Dec.27, 1967
9. OECD (2023), G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ed750b30-en>.
10. Companies Act 2006. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/contents>
11. Shivangi Gupta.Directors duties in India. A critical analysis. <https://ibclaw.in/directors-duties-in-india-a-critical-analysis-shivangi-gupta/>
12. Fairford Water Ski Club v Cohoon Ltd v Cahoon judgement. Case No: A4/2020/0974.<https://www.judiciary.uk/wpcontent/uploads/2022/07/Fairford-Water-Ski-Club-Ltd-v-Cohoon-judgment.pdf>
13. Waleed Tahirkheli. Claims against a director for breach of duty.
<https://chambers.com/articles/claim-against-a-director-for-breach-of-duties>
14. Berle, A. and Means, G. (1932) The Modern Corporation and Private Property. Commerce Clearing House, New York.
<https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1460233>
15. Neeti shikha, changing paradigm of corporate governance in india 73.
16. Norri, M. *Osakeyhtiö. Käytännön käsikirja*. Rakennuskirja OY, Helsinki 1991.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).